

KÓRKEM ÓNER

XALQ NAZARIDAGI SAN’ATKOR...

Rajabov H.J.

O’zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpoq musiqa san’atining rivojlanishiga o‘zini betakror asarlari bilan, xalq nazaridagi san’atkor, taniqli kompozitor Marqaboy Jiemuratov hayoti va ijodiy ishlari haqida so‘z etiladi. Milliy san’at sohasida alohida o‘ringa ega. Chunki uning yozgan musiqalari har bir tinglovchini befarq qoldirmay go‘zal tuyg‘ularga va g‘ayritabiyy muhabbat tuyg‘ulariga chorlaydi.

Kalit so‘zlar: kompozitor, musiqa san’ati, qo‘sishiq, romans, torli orkestr, balet, nota, takт.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни и творчестве известного композитора, Мархабая Жилемуратова, внесшего вклад в развитие каракалпакского музыкального искусства своими уникальными произведениями. Он занимает особое место в области национального искусства. Написанная им музыка не оставляет без внимания ни единого слушателя, пленяя их к прекрасным и сверхъестественным чувствам любви.

Ключевые слова: композитор, музыкальное искусство, песня, романс, струнный оркестр, балет, нота, такт.

Annotation: This article tells about the life and work of the famous composer, Markhabai Zhiemuratov, who contributed to the development of the Karakalpak musical art with his unique works. It occupies a special place in the field of national art. The music written by him does not leave a single listener unattended, captivating them to wonderful and supernatural feelings of love.

Keywords: composer, musical art, song, romance, string orchestra, ballet, note, measure.

Qoraqalpoq musiqa san’atining rivojlanishiga o‘zini betakror asarlari bilan, xalq nazaridagi san’atkor, taniqli kompozitor Marqaboy Jiemuratov. Milliy san’at sohasida alohida o‘ringa ega. Chunki uning yozgan musiqalari har bir tinglovchini befarq qoldirmay go‘zal tuyg‘ularga va g‘ayritabiyy muhabbat tuyg‘ulariga chorlaydi. Ayniqsa uning mashxur qo‘sishiqchi Davutboy Kayipovga bag‘ishlab yozgan “Unutma”, “Seni sog‘inaman otgan tonglarda”, “Altinko‘l”, “Sog‘inch” va boshqa kuylarini xalqimiz haligacha hamon sevib tinglashadi. Shuningdek ayniqsa kompozitorning “Oydinlar” nomli kuyi (Adenbay Tajimutarov so‘ziga) hozirgi kungacha barcha xalqimiz sog‘inch bilan sevib ijro etishadi. O’zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasiga kompozitor Marqaboy Jiemuratov 1984 yili qabul qilingan. U Qoraqalpog‘istonning taniqli kompozitorlaridan biri hisoblanadi.

Marqaboy Jiemuratov Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qarauzak tumanida 1943-yilning 28-martida tug‘ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqib, dutor, skripka, mandolina sozlarini chalishni o‘rganadi. Uning birinchi ustozи baxshi Shaniyoz Mambetov bo‘lib, dutor cholg‘u asbobini chalishni u kishidan o‘rganadi, turli kontsertlarda ijrochi sozanda bo‘lib faol qatnashadi. 1960-yili Nukus musiqa va xareografiya bilim yurtida o‘qishga kirib, 1964-yili skripka cholg‘u asbobi bo‘yicha Najimaddin Muxammeddinovning sinfida o‘qishni bitiradi. 1964-yilda Beruniy shahar bolalar musiqa maktabida skripkada, 1965-1966 yillarda Xo‘jayli tumanidagi bolalar musiqa maktabida dars berdi.

Shu yillari uning kuy va ijrochilik qobiliyati uyg‘ongan bo‘lib, natijada ustozlari bo‘lgan J.Shamuratov, A.Sultanov, X.Turdiqulov, N.Muxammeddinovlarning ta’sirida u ko‘plab kuy va qo‘shiqlar yozadi. Masalan: “Oshiq bo‘larman”, “Unutma” va xakazo.

1969-yili Marqaboy Jiemuratov M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o‘qishga kirdi. Bu o‘quv dargohida mutaxassislikdan avvalo professor B.F.Gienko, keyin professor G.A.Mushel sinfida tahsil olib, 1975-yili konservatoriyanı muvaffaqiyatlı bitirdi.

Marqaboy Jiemuratov ustozlari G.Mushel va B.Gienko bilan o‘ylashib T.Jumamuratovning “Krasavitsa makarya” kitobining rus tilidagi variantini taniqli baletmeyster Markaryants Nikolay Sergeevichga berib libretosini yozish va yosh kompozitor M.Jiemuratovga musiqasini diplom ishi tarzida yozish topshirildi. Bu ish 1975-yili imtiyozli tugatilib (“Makarya go‘zal” baleti) ixtisosligiga kompozitorlar tomonidan diplom ishi bir ovozdan davlat komissiyasini qabulidan o‘tib a’lo baholar bilan baholandi.

Kompozitor M.Jiemuratovning ijodida qo‘sishq va romans janrlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yillar davomida M.Jiemuratov quyidagi musiqiy asarlarini yaratadi: Fortepiano uchun “Piesalar”, “Polka”, “Valslar”, “Marsh”, “Alla”, “Naktyurn”, “Skertso” 4-qismli syuita, “Ernazar Alako‘z” nomli simfonik poema, besh qismli simfonik syuita, Torli orkestr uchun “Poema” Xor va simfonik orkestr uchun “Qoraqalpog‘iston” (I.Qosimbetov so‘zi) qo‘sishq.

Kamina Marqaboy Jiemuratovni o‘tgan asrni yettinchi yillaridagi M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat Konservatoriyasida talabalik yillaridan bilaman.

U juda kamgap, jiddiy, ilimli, uzoqni ko‘ra biluvchi, suhbat qilsang undan bahra olasan kishi. Biz talabalar yotoqxonasida birga turar edik, u o‘z asarlarini chalib berar edi. Uning asarlaridagi kuylar nafis xalqga tez yetib boradigan, tinglovchini maftun etuvchi ohanglari va falsafiy ma’nolari bilan esda qoladigan kuylarini eshitganman.

Marqaboyni kiyinish madaniyati, yurish-turishi o‘ziga xos, betakror insoniylik fazilatlari meni xotiramga muhrlanib qolgan. Uni yozgan asarlaridan “Oltin ko‘l”, “Sog‘inch”, “Oydinlar” kuylarini men O‘zbekiston teleradiokomponiyasi qoshidagi badiiy jamoalarning Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrini badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimida ishlaganimda (2002-2004 yillar) edi.

Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist “Shuhrat” medali sohibi, professor Rudakiy Allanbaev bilan O‘zbekiston radiosini oltin fondiga yozib qoldirganimiz.

Kompozitor Marqaboy Jiemuratov yozgan asarlarini sahnalarda ijro etib, kelajak avlod yoshlarga o‘rgatib va bu asarlar asrlar davomida xalqimizni ma’naviy dunyosini boyitadi degan fikrdaman.

Kompozitor Marqaboy Jiemuratovni “Go‘zal Makarya” baletidagi “Ilon o‘ynatuvchi raqsi” asarini tahlili

Ushbu asarni tahlili haqida ijodiy yondoshadigan bo‘lsak, u kichik hajmdagi asar bo‘lib murakkab ikki qismli shaklda yozilgan.

Asarning kirish qismini Andante tempida yoqimsiz sekundlar, orkestrda raqs ritmik usullar kuyni hayajonli xarakterga ega.

Masalan:




Bu usul butun asar davomida ustun bo‘lib keladi. Baland registrdagi shartli cho‘zimlar kuyni, noan’anaviy ohang holatlarini belgilaydi.

Kirish qismini ikkinchi mavzusida, polifonik yo‘nalishi uzun cho‘zimdagи tovushlar fortepianada kuyni og‘ir, bosiq harakatlari bilan ma’lum qiladi.

1-qism Allegro. Oddiy 2-qismli kvadrat shaklida yozilgan (a+b). Usul ritmi: asarni boshidan oxirigacha

Masalan:



Dinamik kontras raqs usuli kirish qismida tinglovchini tayyorlaydi. Yoqimsiz sekundlar, o‘rta registrdagi forshlaklar, meksalidiya ladi bilan boyitadi.

2-mavzu (b) o‘zini baland registri bilan basdagi nota cho‘zimidagi ligalar miksolidi ladida 1-mavzudagi harakteriga qarshi. 4-tsifradagi 4-takt misol bo‘ladi.



Pastga yo‘naluvchi notalar kirish qismdagi 2-mavzuga yetkazadi va tayyorlaydi.

Andante

Asarning 2-qismi Allegro con moto. G-moll tonika organ punkti bilan ma'lumotdir. Ushbu mavzu ijro jarayonida to‘xtovsiz barcha musiqiy ifoda vositalari bilan o‘rta registrda belgilangan bo‘lib tugaydi.

Asar kulminatsiyasi mening nazarimda ya’ni kuyning oxirida joylashgan bas ovozining oktavali pastga yo‘nalishi tonika organ punkti eng kuchli ovoz ya’ni (f f) Fortissimo va dominantaga tugallanishi asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. (Ma’lumotnoma to‘ldirgan 2-nashr). – T.: “Musiqa” nashriyoti, 2018.
2. Jiemuratov M. “Makarya suluв” Balet syuitasi. – Nukus: “Qaraqalpaqstan”, 2022.
3. Jiemuratov M. “Ernazar Alako‘z”. – Nokis: “Qaraqalpaqstan”, 2013.
4. Rajabov H. Qoraqalpoq musiqa san’atining rivojlanishida xalq cholg‘ulari orkestrining o‘rni. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022.

